



O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI

DSc, dots. Sharopova Nafosat

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0001-9595-0655

nafosat.sharopova@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faoliyati, ularning soha va hududlar kesimidagi rivojlanish dinamikasi hamda tarkibiy o'zgarishlari ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Kichik biznesning milliy iqtisodiyotdagi strategik ahamiyati xususan, yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki va aholining bandligini ta'minlashdagi o'rni ushbu tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyatini belgilab beradi. Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining ma'lumotlari asosida kichik biznes subyektlarining iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi tahlil qilingan. Xususan, YalIMdagi hissasi, eksportdagi ishtiroki hamda sohalar kesimidagi rivojlanish yo'nalishlari o'rganilgan. Shu bilan birga, mavjud muammolar va ularning kelib chiqish sabablari tahlil qilinib, sohani yanada rivojlantirishga qaratilgan amaliy va strategik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqolada keltirilgan xulosalar va tavsiyalar milliy iqtisodiyotda kichik biznes subyektlarining samaradorligini oshirish, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kichik biznes subyektlari, yalpi ichki mahsulot, eksport, iqtisodiy o'sish, tadbirkorlik muhiti, milliy iqtisodiyot.

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МАЛОГО БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ

DSc, доц. Шаропова Нафосат

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье научно проанализирована экономическая деятельность субъектов малого бизнеса в Узбекистане, динамика их развития и структурные изменения в отраслевом и региональном разрезе. Стратегическое значение малого бизнеса в национальной экономике, в частности, его доля в валовом внутреннем продукте, участие во внешнеэкономической деятельности и роль в обеспечении занятости населения определяют научную и практическую значимость данного исследования. В процессе исследования проведён анализ динамики экономических показателей субъектов малого бизнеса на основе данных Агентства статистики Республики Узбекистан. В частности, изучены их вклад в ВВП, участие в экспорте и направления развития по отраслям. Также были выявлены существующие проблемы, проанализированы причины их возникновения и разработаны практические и стратегические рекомендации по дальнейшему развитию данной сферы. Выводы и рекомендации, представленные в статье, служат повышению эффективности субъектов малого бизнеса в национальной экономике и совершенствованию механизмов государственной поддержки.

Ключевые слова: субъекты малого бизнеса, валовой внутренний продукт, экспорт, экономический рост, предпринимательская среда, национальная экономика.

TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS ACTIVITIES IN UZBEKISTAN

DSc, assoc. prof. **Sharopova Nafosat**
Tashkent State University of Economics

Abstract. This article presents a scientific analysis of the economic activity of small business entities in Uzbekistan, including the dynamics of their development and structural changes across sectors and regions. The strategic importance of small businesses in the national economy particularly their contribution to gross domestic product (GDP), participation in foreign economic activities, and role in ensuring employment defines the scientific and practical relevance of this study. The analysis of the economic indicators of small business entities was carried out based on data from the Statistics Agency of the Republic of Uzbekistan. Specifically, the study examines their share in GDP, involvement in exports, and development trends across various sectors. Furthermore, existing challenges and their underlying causes are analyzed, and both practical and strategic recommendations aimed at further development of the sector are proposed. The conclusions and recommendations presented in the article contribute to enhancing the efficiency of small business entities in the national economy and improving mechanisms of state support.

Keywords: small business entities, gross domestic product, export, economic growth, entrepreneurial environment, national economy.

Kirish.

Bugungi globallashuv va raqobat muhitida milliy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishida kichik biznes subyektlarining o'рни va ahamiyati tobora oshib bormoqda (Solovyova, 2023). Kichik biznes nafaqat iqtisodiy faollikni jonlantiradi, balki yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsion g'oyalarni amalga oshirish, ichki bozorni tovar va xizmatlar bilan ta'minlash kabi ko'plab muhim vazifalarni bajaradi (Johnson, Miller, 2021). Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash orqali ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish mumkin bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda kichik biznes subyektlarini rivojlantirish, ular uchun qulay institutsional muhit yaratish, soliq va litsenziyalash tartiblarini soddalashtirish, moliyaviy resurslarga erishish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda (Karimov, Khamidov, 2024). Xususan, davlatning kichik biznesni rivojlantirishdagi faol ishtirokini ta'minlash maqsadida huquqiy-me'yoriy baza yangilanmoqda, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash markazlari faoliyati kengaymoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston taraqqiyotining yangi davrida kichik biznes subyektlarini rivojlantirishga iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tibor qaratilmoqda. Eng avvalo, iqtisodiyotning yetakchi soha va tarmoqlarida kichik biznes subyektlari ulushining oshishi iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlik ta'minlanishining mustahkam poydevori hisoblanadi.

Shu bilan birga, kichik biznes subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, ularning eksport salohiyati, sohalar va hududlar kesimidagi faoliyati tahlil qilinishi orqali mavjud holatni baholash, kamchiliklar va muammolarni aniqlash, ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, kichik biznesning milliy iqtisodiyotdagi ta'sirini oshirish va uni strategik rivojlantirish bo'yicha aniq yo'nalishlarni belgilash imkonini beradi.

Adabiyotlar sharhi.

Jahon iqtisodiyotini yanada rivojlantirishda kichik biznes subyektlarining roli yuqori bo'lganligi sababli, ushbu soha ko'plab olimlar tomonidan chuqur o'rganib kelinadi. Hotaning (2023) ta'kidlashicha, kichik biznes subyektlari tashabbus va faollikni o'z qo'liga olgan holda, kelgusida yuz berishi mumkin bo'lgan turli xatar (risk)larni hisobga olib, o'zining mas'uliyati va javobgarligi asosida amalga oshiriluvchi iqtisodiy faoliyatdir. Abdusalyamovning (2021)

fikricha, kichik biznes subyektlari erkinligi, ijodkorligi hamda raqobat muhiti uyg'unlikda juda katta bunyodkorlik kuchini hosil qiladi. Amjad, Abdul va Sa'atarlar (2020) ayniqsa, o'zining faoliyat ko'лами jihatidan nisbatan ixcham bo'lgan kichik tadbirkorlik iqtisodiyotdagi kon'yunkturaviy o'zgarishlarga tezlik bilan moslasha oladilar deb hisoblashadi. Sharopovanning (2023) tadqiqotlarida kichik biznes egalari o'z iste'molchilarining did va qiziqishlarini to'liq anglashlari va e'tiborga olishlari zarur ekanligi ilmiy asoslangan. Shu jihatdan, Sobirjonov (2021) kichik biznes maqsadli auditoriyasini kengaytirishi uchun barcha imkoniyatlaridan to'liq foydalanishi lozim deya ta'kidlaydi. Ali va Zhanglarning (2022) ta'kidlashicha, kichik biznes faoliyati raqobat muhitini kuchaytirgan holda iqtisodiyotga jo'shqinlik baxsh etish kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Mazkur tadqiqot aynan shu maqsadlarga qaratilgan bo'lib, unda mavzuning dolzarbligi nazariy va amaliy jihatdan asoslanadi, turli olimlarning ilmiy qarashlari tahlil etiladi, rasmiy statistik ma'lumotlar asosida kichik biznes subyektlarining iqtisodiy ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilinadi va ilmiy xulosalar hamda tavsiyalar taqdim etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur ilmiy tadqiqotda kichik biznes subyektlarining O'zbekiston iqtisodiyotida tutgan o'rni va rivojlanish yo'nalishlari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotning metodologik asosini iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar, tizimli tahlil va qiyosiy tahlil usullari tashkil etadi.

Mavzuning dolzarbligi zamonaviy iqtisodiy jarayonlar va milliy rivojlanish strategik yo'nalishlari nuqtai nazaridan asoslandi. Ushbu bosqichda ilmiy adabiyotlar tahlili orqali, muallif tomonidan mavjud nazariy yondashuvlar va olimlarning turlicha qarashlari tanqidiy o'rganilib, individual ilmiy mulohazalar shakllantirildi.


Tadqiqotning empirik qismida esa O'zbekiston Respublikasi huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlaridan foydalanilgan holda kichik biznes subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, eksportdagi ishtiroki va sohalar kesimidagi rivojlanish holati qiyosiy tahlil qilindi. Bunda vaqt bo'yicha dinamik tahlil, sohalar va hududlar kesimidagi taqqoslashlar asosida mavjud muammolar va tendensiyalar aniqlandi.

Tadqiqot natijalari asosida sohani yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Bunda milliy iqtisodiyotda kichik biznes subyektlarining rolini kuchaytirish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish va tadbirkorlik muhitini yaxshilash bo'yicha takliflar ilgari surildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan istiqbolli islohotlar sifatida iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektorga keng yo'l ochish[10], shuningdek tadbirkorlar o'z faoliyatini boshlashi uchun zarur ma'lumotlarni erkin foydalana olish hamda iqtisodiy munosabatlarda erkin bozor tamoyillarini joriy etishni kengaytirish kabi masalalarni sanab o'tish mumkin. Mamlakatimizda kichik biznes subyektlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, iqtisodiy o'sish va barqarorlikni ta'minlashdagi rolini hisobga olgan holda davlatimiz tomonidan yaratilgan shart-sharoitlar hamda qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida so'nggi yillarda kichik biznes subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi oshib borayotgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, kichik biznes subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 1991 yilda atigi 1,5 foizni, 2000 yilda 31 foizni tashkil etgan. Ayniqsa, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichi sifatida e'tirof etilgan 2016 yilda mazkur sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi eng yuqori marraga, ya'ni 66,8 foizga yetgan (1-rasm).




1-rasm. Kichik biznes subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, foiz

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Yuqoridagi 1-rasm ma'lumotlaridan ham ko'rinadiki, so'nggi yetti yilda mazkur ulushdagi bir oz pasayish holatlarini kuzatish mumkin. Ya'ni, 2022 yilda bu ko'rsatkich 51,8 foizga va va 2023 yilda 51,2 foizga tushgan. Bu shuni anglatadiki, 2000 yilga nisbatan 2023 yilda 20,2 foizga oshganligini ko'rish mumkin. Ammo, 2022 yilga nisbatan 2023 yilda 0,6 foizga pasayganligini ko'rish mumkin.

Bu o'rinda, kichik biznes subyektlarining YaIMdagi ulushining qisqarishi asosan mamlakatimizdagi yirik sanoat ob'ektlarining ishga tushirilishi tufayli yirik korxonalar ulushining nisbatan tezroq o'sishi bilan izohlanadi.

Kichik biznesning iqtisodiyotga qayishqoqlik, moslashuvchanlik baxsh etuvchi xususiyati yangi korxonalarning tashkil topishi va faoliyat yuritishi bilan ta'minlanadi. Ya'ni, kichik biznes korxonalari iqtisodiyotdagi talab jadallik bilan o'sib borayotgan tarmoq va sohalarga xizmat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlarini ko'rish mumkin (2-rasm).



2-rasm. 2023 yilda respublikamiz iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari soni, birlik

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Yuqoridagi rasm ma'lumotlariga ko'ra, respublikamizda iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari soni 2022 yilga nisbatan 2023 yilda 79,6 foizga kamayganligini ko'rish mumkin. Shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlari kesimida ularining faoliyat ko'rsatish ko'rsatkichlarini o'tgan yili 2022 yil bilan solishtirganda, jadvalda tahlil qilingan 8 turdagi iqtisodiyot tarmoqlaridagi kichik tadbirkorlik subyektlarining soni 2023 yilga kelib, keskin kamayganligini ko'rish mumkin. Ayniqsa, Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasida 69,8 foizga va sanoat sohasida 70 foizga keskin kamaygan.

Fikrimizcha, iqtisodiyot tarmoqlari kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining faoliyat ko'rsatish ko'rsatkichlarining bu darajada keskin kamayishining asosiy sabablari sifatida mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni, shuningdek, ularning yangi tashkil etilgan va tugatilgan tadbirkorlik subyektlari sonini ham tahlil qilish lozim. Chunki, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari soni ularning faoliyat ko'rsatish ko'rsatkichlarining oshishi yoki pasayishiga yuqori ta'sirga ega bo'lishi mumkin.

Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni oxirgi bir yilda, 2023 yilda kamayganligining asl sababini aniqlash maqsadida iqtisodiyot tarmoqlari kesimida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonini tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Respublika bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlari kesimida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonini umumiy olganda, 2015 yilga nisbatan 2023 yilda 319,86 foizga oshganligini ko'rish mumkin. Ayniqsa, savdo 469 foiz va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 399 foizga oshgan.

2022 yilga nisbatan 2023 yilda respublika bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlari kesimida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonini 95 foizni tashkil etib, ushbu ko'rsatkich 2023 yilda kamayganligini kuzatish mumkin. Xususan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 78 foiz, sanoatda 87 foiz, savdo sohasida 97 foiz va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlari sohasida 97 foizga kamaygan.


Shu o'rinda, Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari sonining 2023 yilda keskin kamayish sabablarini yanada chuqurroq tahlil etish maqsadida iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyati tugatilgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonini tahlil qilish zarurati paydo bo'ldi. 2015 yilda iqtisodiyot tarmoqlari kesimidagi kichik biznes subyektlari 22646 tasining faoliyati tugatilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkichni 2023 yildagi bilan solishtirganda 34 foizga oshgan. 2022 yil bilan solishtirganda esa 31 foizga oshganligini ko'rish mumkin. Yuqoridagi tahlillarga ko'ra, iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan 8 turdagi ko'rsatkichlarning barchasida 2023 yilga kelib, kichik biznes subyektlarining tugatilganlik darajasini oshganligini ko'rish mumkin.

Xususan, kichik biznes subyektlari tashish va saqlash xizmatlarida 46 foizga va axborot va aloqa xizmatlari sohasida 45 foizga tugatilganlik darajasi oshgan. Nisbatan olganda, qurilish sohasida 20 foiz va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida 25 foizga kamroq kichik biznes subyektlari tugatilgan.

So'nggi yillarda mamlakatimizda kichik biznes subyektlarining ijtimoiy-iqtisodiy o'sishi hamda barqarorligini ta'minlash maqsadida davlatimiz tomonidan yaratilgan shart-sharoitlar, ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar doirasidagi keng ko'lamli islohotlarning olib borilishiga qaramay, faoliyat yuritayotgan kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari soni yil sayin kamayib bormoqda.

Fikrimiz isboti sifatida, 2022 yilda 523556 kichik biznes subyektlari faoliyat yuritgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2023 yilda ularning soni 417080 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 2023 yilda 30 foizga pasayganligini ko'rish mumkin. Ayniqsa, 2022 yilga nisbatan 2023 yilda iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyati tugatilgan kichik biznes subyektlari soni 31 foizga oshgan. Shuningdek, barcha iqtisodiyot tarmoqlari kesimida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonida ham 2022 yilga nisbatan 2023 yilda 5 foizga pasayganligini kuzatish mumkin.

Shu o'rinda, so'nggi yillardagi kichik biznes subyektlari sonidagi keskin kamayishlar respublikamizning uning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko'rsatkichlariga ham tahsir etmay qolmaydi. Shu boisdan, kichik biznes subyektlarining iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko'rsatkichlarini chuqur tahlil qilish zarurati paydo bo'ldi (3-rasm).



3-rasm. Kichik biznes subyektlarining iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko'rsatkichlari tahlili

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2000 yilda sanoatdagi kichik biznes subyektlarining ulushi 244 mlrd.so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkichni 2023 yi bilan solishtirganda 72346 foizga va qurilishdagi ulushi 149 mlrd.so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkichni 2023 yil bilan solishtirganda 75110 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

Shuningdek, 2000 yilda kichik biznes subyektlarining iqtisodiyot tarmoqlaridagi 10 ta asosiy ko'rsatkichlari orasidan nisbatan kamroq o'sgan tarmoqlar sifatida bandlikdagi va eksportdagi ulushini ta'kidlash mumkin. Lekin, ushbu ikki tarmoq ham 2000 yil bilan solishtirganda 20 barobardan ko'p miqdorda o'sgan. Bandlik 4467,1 ming kishini tashkil etib, bu ko'rsatkichni 2023 yil bilan solishtirganda 230 foizga va eksport 334,3 mln.AQSH.dollarni tashkil etib, bu ko'rsatkichni 2023 yil bilan solishtirganda 2121 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

Shu o'rinda, 2010 yil ko'rsatkichlari bilan 2023 yilda sanoatdagi kichik biznes subyektlarining ulushi 2688 foizga va savdo 1469 foizga oshgan. 2010 yilda nisbatan boshqa ko'rsatkichlar bilan solishtirganda nisbatan kamroq o'sishga ega bo'lsada, lekin ushbu ikki tarmoqdagi ulushi, ya'ni bandlikdagi ulushi 119 foizga va yo'lovchi tashishdagi ulushi 186 foizga oshgan.


2015 yilga kelib, kichik biznes va tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushida o'zgarishni ko'rish mumkin. Bunda ushbu ko'rsatkichni 2000 yilga nisbatan 2023 yil bilan solishtirganda qurilishdagi ulushi 660 foizga va xizmatlardagi ulushi 475 foizga oshganligini kuzatish mumkin. 2015 yilda iqtisodiyotning 10 ta tarmoqlari orasidan kichik biznes va tadbirkorlikning ulushi nisbatan kamroq o'sgan tarmoq sifatida bandlik va yo'lovchi tashish sohalarini ta'kidlash mumkin. Lekin, ushbu ikki soha 2015 yilga nisbatan 2023 yilda bandlik 101 foizga va yo'lovchi tashish 128 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

Shu o'rinda, kichik biznes va tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushidagi o'zgarishlarni o'tgan yil 2022 yilga nisbatan 2023 yildagi o'sish ko'rsatkichlarini tahlil qiladigan bo'lsak, import (19350 mln.AQSH.dol) 127 foizga va eksport (7092,1 mln.AQSH.dol) 124 foizga oshgan. 2023 yilda nisbatan boshqa tarmoqdagi sohalar bilan solishtirganda bandlik (10279

ming kishi) 101 foizga va yo'lovchi tashish (5743 mln.yo'lovchi) 102 foizga nisbatan kamroq o'sgan sohalar sifatida ta'kidlash mumkin.

Yuqoridagi tahlillardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kichik biznes va tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi so'nggi 24 yil mobaynida eng ko'p oshgan tarmoq sifatida sanoat, qurilish, savdo, xizmatlar, import va eksport tarmoqlarini, shuningdek, nisbatan boshqa tarmoqlar bilan solishtirganda bandlik va yo'lovchi tashish sohalarini kamroq o'sishga erishgan sohalar sifatida ta'kidlash mumkin.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda kichik biznes va tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi assosiy ko'rsatkichlaridagi ulushini yanada batafsil tahlil qilish maqsadida import, eksport, sanoat, qurilish va bandlik tarmoqlaridagi o'zgarishlar chuqur tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi (4-rasm).



4-rasm. Kichik biznes subyektlarining eksportdagi ulushi, foizda

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, respublikamizda 2000 yilda kichik biznes subyektlarining eksportdagi ulushi 10,2 foizni tashkil etgan va ushbu ko'rsatkichni 2023 yil bilan solishtirganda 284 foizga oshganligini kuzatish mumkin. Shundan 10 yil o'tib, 2010 yilda ularning eksportdagi ulushi 13,7 foizni tashkil etgan va ushbu ko'rsatkichni 2023 yil bilan solishtirganda 212 foizga oshganligini ko'rish quvonarli hol, albatta.

Yuqoridagi 2-rasm ma'lumotlariga ko'ra, 2015 yilda kichik biznes subyektlarining eksportdagi ulushi 27 foizni tashkil etgan va ushbu ko'rsatkichni 2023 yil bilan solishtirganda 107 foizga oshgan.

Kichik biznes subyektlarining eksportdagi ulushi 2020 va 2021-yillarda keskin pasayib, 20 foizni tashkil etgan. Fikrimizcha, ushbu eksport hajmiga dunyodagi Koronavirus pandemiyasi ta'sir qilgan bo'lishi mumkin. Shundan so'ng, respublikamizda kichik biznes subyektlarining eksportdagi ulushining o'sish darajasi eng yuqori cho'qqisi sifatida 2022 yilda 29,6 foizga yetgan. Ushbu ko'rsatkichni 2023 yil bilan solishtirganda eksportdagi ulushi 2,3 foizga pasayganligini ko'rish mumkin.

Yuqorida o'tkazilgan chuqur tahlillar natijasida, kichik biznes subyektlarining faoliyatini 2022 yil bilan 2023 yil ko'rsatkichlarini solishtirganda quyidagicha xulosa qilish mumkin:

- yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 0,8 foizga pasaygan;
- sanoatdagi ulushi 0,9 foizga oshgan;
- importdagi ulushi 1,3 foizga oshgan;
- eksportdagi ulushi 0,6 foizga pasaygan;

qurilishdagi ulushi 3,2 foizga oshgan;
bandlikdagi ulushi 0,2 foizga oshgan;
iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari soni 20,3 foizga pasaygan;

iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyati tugatilgan kichik biznes subyektlari soni 31 foizga oshgan;

iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyati yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 4,6 foizga oshgan.

Yuqoridagi tahlil natijalariga asoslanib, aytish mumkinki mamlakatimizda kichik biznes subyektlari faoliyatini yanada yaxshilash uchun davlatimiz tomonidan ushbu tizimni ijtimoiy-iqtisodiy sohalar bo'yicha hali yana keng ko'lamli islohotlarni olib borish orqali qo'llab-quvvatlash zarur bo'ladi. Balki, shu boisdan ham so'nggi yillarda prezidentimiz tashabbuslari bilan keng ko'lamli islohotlar boshlangan.

Xususan, mamlakatimizda kichik biznes subyektlari faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish maqsadida 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining, "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash bo'limida keltirilishicha, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish 29-maqсад sifatida rejalashtirilgan [12]. Shuningdek, hududlarda 200 ta yangi sanoat zonalarini tashkil etish va biznes-inkubatorlar tizimini rivojlantirish, sharoiti og'ir bo'lgan tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, ilg'or xorijiy tajriba asosida faktoring amaliyotini rivojlantirish, eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 baravar ko'paytirish orqali Yevropa davlatlariga GSP+ tizimi doirasida tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirish kabi vazifalar belgilandi.

Sanab o'tilgan vazifalarni samarali ijrosini ta'minlash maqsadida har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan «Ochiq muloqoti»ni o'tkazib borilmoqda. Fikrimizcha, bu kabi tizimli muloqotlar kichik biznes subyektlari oldida turgan muammolarni samarali yechishga yordam beradi. Shu o'rinda mamlakatimizda kichik biznes faoliyatiga doir qonunchilik asoslariga to'xtalib o'tish ham maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Xulosa va takliflar.

kichik biznes subyektlari uchun moliyalashtirish imkoniyatlarini yanada yaxshilash: buning uchun mikromoliyalashtirish dasturlari, mahalliy va xorijiy investitsiya fondlaridan foydalanish va hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan kreditlarni kafolatlash tizimlari kabi tashabbuslar orqali kichik biznes uchun moliyalashtirish imkoniyatlarini yaxshilash mumkin. Moliyaviy imtiyozlarni taqdim etish orqali kichik biznes egalari moliyalashtirishdagi to'siqlarni yengib o'tishlari va bizneslarini o'sishiga sarmoya kiritishlariga yordam berilgan bo'lar edi.

tadbirkorlik bo'yicha ta'lim va treninglarni tashkil etish: tadbirkorlikka intiluvchilarni muvaffaqiyatli biznesni boshlash va rivojlantirish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar, bilim va malakalarni shakllantirish uchun tadbirkorlik bo'yicha ta'lim va o'qitish dasturlarini oliy o'quv yurtlar bilan hamkorlikda yo'lga qo'yish lozim. Tadbirkorlarga biznesni samarali boshlash va boshqarishdagi muammolarni hal qilishda yordam bera oladigan murabbiylarni topishga ko'maklashiladi.

biznesni davlat ro'yxatidan o'tkazish hamda ish faoliyatiga oid hisobotlarni mutassaddi tashkilotlarga topshirish jarayonlarini soddalashtirish: biznesni ro'yxatga olish, litsenziyalash va hisobotlarni topshirish jarayonlarini soddalashtirish orqali tadbirkorlik faoliyatidagi byurokratik to'siqlarni kamaytirishga erishish lozim. Shundagina innovatsiyalar va tadbirkorlikni rag'batlantiradigan qulay biznes muhitini yaratishga erishish mumkin.

bozor tadqiqotlarini o'tkazish xizmatlarini taklif etadigan maxsus agentliklar faoliyatini kengaytirish: bozorlarga oid ma'lumotlari to'plash, savdoni rag'batlantiruvchi

tavsiyalarni berish va eksportga ko'maklashish masalalari bo'yicha ushbu agentliklar kichik biznes egalari uchun ichki va xalqaro bozorlarga kirishga yordam beradilar. Shuningdek, bu agentliklar kichik biznesga o'z imkoniyatlarini aniqlash, brending va marketing faoliyatini qo'llab-quvvatlash, mijozlar soni oshirish va bozordagi ishtirokini kengaytirishga yordam berishadi.

texnologiyalar va korxona faoliyatini to'liq raqamlashtirish: kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirish uchun texnologiyalar, ishlab chiqarish, menejment va marketing jarayonlarini raqamlashtirish lozim. Kichik biznesga mijozlar bilan ishlash, savdo kabi barcha marketing faoliyatini raqamli texnologiyalardan foydalanishga yordam berish uchun treninglar tashkil etish yoki shu jarayonlarni rag'batlantirish, zarur bo'lsa texnik yordam ko'rsatish lozim.

infratuzilmani rivojlantirish: hamkorlar va yetkazib beruvchilar bilan bog'lanish hamda bozorlarga kirishni yaxshilash uchun infratuzilma (transport, logistika va telekommunikatsiyalar)ni rivojlantirish lozim. Buning uchun tadbirkorlarni arzon ish joylari, kerakli texnika va jihozlar hamda unga tegishli bo'lgan xizmatlar bilan ta'minlash uchun sanoat parklari, biznes inkubatorlar va texnologik markazlarni rivojlantirish zarur bo'ladi.

innovatsiyalar va tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash: kichik biznes va ilmiy muassasalar o'rtasida innovatsiya va tadqiqotlar olib borish bo'yicha hamkorlikni rag'batlantirish lozim. Bunda bozor ehtiyojlariga javob beradigan, texnologik innovatsiyalarni rag'batlantiradigan va yangi biznes imkoniyatlarini yaratadigan tadqiqotlar, ishlanmalar va loyihalarni moliyalashtirish hamda rag'batlantirish zarur bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu strategiyalarni kichik biznes egalari bilan hamkorlikda amalga oshirish orqali davlatimiz yalpi ichki mahsulotdagi kichik biznes subyektlarining ulushini oshishiga, iqtisodiy rivojlanishni rag'batlanishiga va farovon o'sish uchun imkoniyatlar yaratilishiga erishishi mumkin. Shuningdek, kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirish mamlakatdagi eksport ulushining oshishi, iqtisodiy o'sishni ta'minlash, iqtisodiyot sohasidagi innovatsiyalar va raqobatbardoshlikni oshirish, ishlab chiqarish tizimini diversifikatsiya qilish, chet el valyutasini olib kirish orqali milliy valyutaning qadrsizlanishini oldini olish kabi bir qancha sohalarida umummilliy taraqqiyotga hissa qo'shishda muhim o'rin tutadi. Shu bois, kichik biznes subyektlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish va ko'plab imtiyozlar berish lozim. Bu kabi islohotlar mamlakatning barqaror iqtisodiy farovonlik va barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar /Jumepamypa/Reference:

Abdusalyamov F.M. (2021) *O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlari raqobatbardoshligini boshqarishni takomillashtirish. 08.00.13 - «Menejment» iqt. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilm. dar. dissertatsiya. TDIU.*

Ali K., Zhang X. (2022). *The impact of small business on competition and economic growth in Central Asia. Journal of Central Asian Economics*, 28(4), 211-230. <https://doi.org/10.1080/jcae2022.789032>.

Amjad T., Abdul Rani S. H., Sa'atar S. (2020). *Entrepreneurial Marketing Theory: Current Developments and Future Research Agenda. SEISENSE Journal of Management*, 3(1), 27-46. <https://doi.org/10.33215/sjom.v3i1.274>.

Farmon (2022) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni, 2022 yil 28 yanvar. lex.uz/uz/docs/5841063.*

Hota P. K. (2023). *Tracing the Intellectual Evolution of Social Entrepreneurship Research: Past Advances, Current Trends, and Future Directions. Journal of Business Ethics*, 182(3), 637-659.

Johnson R., Miller T. (2021). *Entrepreneurship in emerging markets: The dynamics of small business in Uzbekistan. International Journal of Business and Economics*, 45(2), 150-168. <https://doi.org/10.1080/ijbe2021.456789>.

Karimov A., Khamidov M. (2024). Statistical analysis of small business performance in Uzbekistan: A comparative study. *Economic Research Journal*, 15(2), 45-60. <https://doi.org/10.1016/erj2024.200025>.

Qaror (2021) O'zbekiston Respublikasi prezidentining "Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-5087-son qarori, 2021 yil 21 aprel. <https://lex.uz/docs/5382179>.

Sharopova N. (2023) Tadbirkorlik muvafaqqiyatida mijozlarni o'rganishga qaratilgan marketing tadqiqotlariga oid tendensiyalar. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali (maxsus son), 270-277 b.

Sobirjonov S.S. (2021) Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini boshqarishni takomillashtirish. 08.00.13 - «Menejment» 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti. iqt. fan. bo'yicha falsafa doktori (Ph.D) ilm. dar. dissertatsiya. TMI.

Solovyova O. (2023). The role of small business in Uzbekistan's economic development: Trends and challenges. *Journal of Economic Development Studies*, 34(3), 112-130. <https://doi.org/10.1007/jeds2023.123456>.